

## JADIDCHILIK MILLIY HARAKATINING YANGI O‘ZBEKISTONNI QURISHDAGI SIYOSIY VA MA’NAVIY AHAMIYATI

Rizayev Nodir Sobirovich

Buxoro davlat universiteti “Ijtimoiy-siyosiy fanlar”

kafedrası o‘qituvchisi f.f.f.d (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20542172>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Buxoro jadidchilik maktabining vakillari ijtimoiy - siyosiy faoliyatining yoshlar ma’naviyati va hayotiy pozitsiyasining shakllanishi muhim qarashlari tahlil etilib, ma’rifatparvarlar faoliyatidagi ilgari surgan taklif va mulohazalarning bugungi kun dolzarb misollari orqali etilgan.

**Kalit so‘zlar:** jadidlar, ijtimoiy - siyosiy, strategiya, ta’lim, islohotlar, ma’naviyat

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkiston zaminida boshboshdoqlik, ommaning bilimsizligi, qashshoqligi va boshqaruv apparatining haddan ziyod konservativ ekanligi jadid ma’rifatchilarining ijtimoiy - siyosiy faoliyatlarini kengaytirish va hattoki kuchaytirishga olib keldi. Ma’rifatparvarlarning talqiniga ko‘ra, bu illatlardan qutulish uchun xalqni ma’naviy ongi hamda ilmiy salohiyatini o‘zgartirish zarur edi.

Ma’rifatparvar-jadidchilik harakatining eng muhim xususiyati shundan iboratki, yoshlarning ijtimoiy faolligini, salohiyatini ijtimoiy-ma’naviy yuksalishiga e’tibor qaratildi.

Bu borada Buxoro jadid maktabi vakillarining qarashlari ham o‘lkaning boshqa jadidlari bilan hamohang tarzda edi. Ular faoliyatida asosan xalqni ma’rifatli qilish, ta’limga zamonaviylikni olib kirish va uni isloh qilish, aholi farovonligini oshirish, xalqaro hamkorlikni oshirish, ilg‘or texnologiyalarni jalb qilish kabi muhim masalalar yotardi. Bir so‘z bilan aytganda yangicha qarash va yangicha tizimni shakllantirish kun tartibida edi. Lekin mavjud tuzum bu harakatlarga qarshi edi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo‘lgan mintaqamizda uchinchi Renessansni aynan jadid ajdodlarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Afsuski, mustabid tuzum ularning ezgu g‘oya va amaliy harakatlarini to‘la ro‘yobga chiqarishga imkon bermadi”[1]

Lekin jadidlar qoldirgan ilmiy meros bugungi kun yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda va ularning hayotiy pozitsiyalarini shakllantirish da muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Buxoro jadidlari maktabi yirik vakili Abdurauf Fitrat yosh avlod hamda ta’lim to‘g‘risidagi qarashlarini alohida qayd etish zarur. Bugungi YAngi O‘zbekiston jamiyatining asosiy ustuvor yo‘nalishi sifatida ilm fanni rivojlantirish, zamonaviy bilimarni egallash va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kabilar ko‘rilayotgan bir sharoitda Fitrat ilgari surgan g‘oya va fikrlar ahamiyati muhim ekanligini ko‘rsatmoqda. Jumladan Fitratning “Oila” asarida oilada farzand tarbiyasini kamol topdirish bo‘yicha quyidagilarni ta’kidlaydi:

1) Ota onalar tomonidan farzandalarining ham jismonan va aqlan rivojlanishiga imkon yaratish;

2) Oilada farzand tarbyaisida uning kamchiliklarini bayon qilmaslik ;

3) Ota onalar o‘z farzandalariga ibratli kishilar haqida ko‘proq gapirib berishi kerak;

4) farzandalariga o‘z ijod erkinliklarini yaratib berish;[2]

Fitrat “Raxbari najot” asarida yosh avlod tarbiyasi tugrisida shunday yozgan: “Dunyo kurashning umumiy maydoniga uxshaydi va bu maydonning buzruk paxlavonlari insonlardir. Bu kurashda golib chikish uchun uch xil kuroлга ega bulish kerak: birinchisi - “Salomatlik”, ikkinchisi - “Soglom fikr”, uchinchisi - “Axloqi sano” (oliy axloqiylik). Bolalarni barkamol kilib voyaga etkazish

uchun uning tarbiyasiga fakat oilagina javobgar bulmasdan, butun millat ahli javobgardirlar”[2:21].

Abdurauf Fitrat qarashlarining hozirgi kun uchun yana bir muhim jihati shundaki dabdabali to'ylar, turli diniy marosimlarni haddan ziyod isrofgarchilikda o'tkazilishi tufayli xalq hech qachon manfaat ko'rmasligini bayon qilishi ayni davrda mamlakatimiz siyosatida ustuvor vazifa sifatida qaralayotganini ko'rishimiz mumkin. Chunki xalqimiz bu kabi illatlardan voz kechmas ekan o'z oldimizga qo'ygan ulkan maqsadlarga erisha olmaymiz. Bu borada O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi kengashining va O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi Senati kengashining *“To'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar o'tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”* [3] qo'shma qarori qabul qilingan.

SHuningdek Fitrat o'zining *“Hind sayyohi qissasi”* asarida tarbiya masalasi va diniy bag'rikenglikni hamda boshqa din vakillarini hurmat qilish kerakligi haqida to'xtalib o'tadi. Fitrat o'z g'oyalarini Qur'on ko'rsatmalariga asoslar ekan, u boshqa xalqlarning faqat boshqa dinga e'tiqod qilgani uchun yutuqlarini rad etishni ma'qullamaydi. Bu asarda Fitrat ijodi islom dinining falsafiy mazmunini yangicha mutolaa qilish, dunyoviy o'zgarishlarni to'g'ri tushunish hamda insonning bu dunyoda aziz ekanligi borasidagi falsafiy qarashlarini alohida qayd etish mumkin[4].

Buxorolik shifokor va shoir Mirzo Sirojiddin murakkab siyosiy jarayonlarda ta'lim tizimini isloh qilish, xalq ma'naviyatini oshirish yo'lida xizmat qilgan ma'rifatparvarlardan biri edi. U faoliyati davomida ko'pgina mamlakatlarda bo'ladi va u yerdagi shart-sharoitlar bilan tanishadi hamda o'z vatanidagi o'zgarishlar bilan solishtirar ekan o'zining memuar asari *“Tuhafi ahli Buxoro”* (Buxoro xalqiga sovg'a) da Buxoroning Yevropa va Osiyoning bir qator davlatlaridan orqada qolishi haqida: *“Butun yer yuzini ular (Ovro'po mustamlakachilari) o'z tasarruflariga olganlar. Biz ularning qo'l ostilariga qolganmiz. Biz iflos ko'cha va bozorlarda yashab kasb qilishimiz va quyosh issiqligida ziroat bilan shug'ullanishimiz kerak va qo'lga kiritilgan boyligimizni ularning san'atlari evaziga berib, o'zimizni gadoy qilishimiz kerak... Bolalarimiz libosidan boshlab to o'liklarimizning kafanigacha Ovro'podan keladi... Endi biz muhtoj bo'lmay, kim bo'lsin. Ular biz – osiyoliklarning boyliklarini olib ketar ekanlar, boy bo'lmay, kim boy bo'lsin? Axir biz ham ularday odammiz. Biz ham yaxshi uylarda yashashni orzu qilamiz”, deb yozadi.*[5] Uning 1914 yil Oyina jurnalida chop etilgan *“Aql”* maqolasida o'z falsafiy qarashlarini bayon etadi. Mirzo Sirojiddin bunda aqlning lug'aviy ma'nosi va falsafiy kategoriyasiga alohida ahamiyat beradi hamda aqlni inson kamolotining muhim aspekti, odamni hayvondan farqlantiruvchi jihat sifatida ta'riflaydi.

Mirzo Sirojiddin merosi bugungi kun yoshlari uchun ahamiyati shundaki, uning qarashlarida asosan najotni ilmdan izlash va shu orqali farovonlikka erishishni hamda xorijiy tajribalarni o'rganib inson o'zini rivojlantirib borishini ta'kidlaydi. Bu borada ma'rifatparvar shunday degan edi. *“Biz, Osiyo xalqi, ovro'poliklardan taraqqiyot jihatidan orqada qolgan bo'lsak ham, hali vaqt bor, qo'limizdan chiqib ketgan ilm va sarvatni qayta qo'lga olishga, bugungi faqirlikdan qutulishga imkoniyatimiz bor, taraqqiyot va obodonchilikni yo'lini to'sadigan biror narsa ko'rinmaydi va hech kim bizning yuzimizga ilm va hunar eshiklarini yopgani yo'q. Bizning taraqqiyotimiz ilmga bog'liqdir. Biz maktab va madrasalarimizdagi ta'lim va tarbiyani isloh qilishimiz kerak”*. [6]

Shuningdek Abdulvohid Burhonov, Mukammil Burhonov, Sadridin Ayniy, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev (Usmon Xo'ja), Otaulla Xo'jayev, Akmaljon Hamdiy (Abusaidov), Homidxo'ja Mehriy, Musa Saidjonov kabi ziyolilarning qarashlarida eng avvalo, aholining barcha ijtimoiy qatlamlari orasida hukm surgan savodsizlikni tugatish, eski ta'lim tizimini isloh qilish, qoloq, eski va behuda odatlarga chek qo'yish singari maqsadlari ilgari surildi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra

ular, ayniqsa diniy mutaassiblik, behuda sarf-harajatlarga olib keluvchi an’anaviy odatlarga tanqidiy yondashgan.

SHunday qilib Buxoro jadidlari ijtimoiy - siyosiy faoliyatining hozirgi davr uchun ahamiyatini quyidagilar asosida ko’rib o’tishimiz mumkin

*Birinchi*dan. Ilm fan doirasidagi zamonaviy bilimlarni egallash hamda aholining savodxonlik darajasini oshirish

*Ikkinchi*dan. Jadidlar amirlikdagi tibbiyot tizimi tanqid qiladi va o’z navbatida zamonaviy tibbiy bilimlarni egallash kerakligini ta’kidlaydi.

*Uchinchi*dan. Oiladagi muhit, farzand tarbiyasi to’g’ri tartibga solish o’z navbatida jamiyat farovonligi uchun muhim omil.

*To’rtinchi*dan. Davlat ijtimoiy sohani tartibga solishi hamda ziyoli qatlamni qo’llab quvvatlashi zarur

*Beshinchi*dan. Davlat turli soha vakillariga imtiyozlar yaratishi kerak, soliq islohotlarini o’tkazishi hamda xalqaro aloqalarni mustahkam o’rnatishi zarur.

Bugungi kunda YAngi O’zbekiston jamiyatida barcha sohalarida bo’lgani kabi kelajak avlod vakillari yoshlarga e’tibor davlat siyosatining asosiy o’rnida bo’lmoqda. Bu borada esa ko’pgina qarashlar jadidlar g’oyalari bilan chambarchas bog’liq bo’lmoqdayu.

Turkiston jadidlarining ijtimoiy-siyosiy faoliyati hamda huquqiy qarashlari hozirgi Yangi Ozbekistonda o’tkazilayotgan islohotlarda asosiy dasturi

amal bo’lib xizmat qilmoqda. Zotan, hozirgi kunda siyosatimizning bosh mezonida inson omili, dunyoviylik, ijtimoiy davlat, ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish hamda yuksaltirishga asoslangan “yangi jadidchilik” g’oyalari bilan yo’g’rilgan. Bu faoliyatlarni huquqiy asosi aynan yangi Konstitutsiyamizda mustahkamlanganligi jadidlar ijtimoiy – siyosiy qarashlari hozirgi davr uchun ham muhim ahamiyat kasb etayotganligini ko’rishimiz mumkin

Bu narsa shuni anglatadiki jadidlar merosini o’rganish hamda hozirgi kun dolzarb masalalarni hal qilishda aniq strategiya ega bo’lish imkonini beradi. Oxirgi yillarda jadidchilik ilmiy merosini o’rganish turli mavzularda ularning faoliyatini tadqiq qilish ancha kengaydi lekin shunday bo’lsada jadidlar faoliyatiga

oid bilimlar ancha keng va bu omil bu sohani chuqur o’rganishni talab etadi. Ayniqsa Buxoro jadidchilik maktabi vakillarining ilmiy merosini o’rganishda faqatgina asosiy vakillar faoliyatini emas balki boshqa ma’rifatparvarlarni ham tadqiq qilish zarurdir. Bu borada Buxoro shahridagi “Hovli poyon” uyida O’zbekiston madaniyati va san’atini rivojlantirish jamg’armasi ishtirokida jadidchilik tarixiga bag’ishlangan ilk muzey tashkil etilishi kelajakda o’z mevasini berishi tabiiy.

Muzeyda jadidchilik namoyandalarning qo’lyozmalari va shaxsiy buyumlaridan iborat yangi ekspozitsiya hamda jadidchilik tarixini ochib beruvchi maxsus yaratilgan multimediyaga tizimi o’rin oladi. Muzey qoshida jadidlar merosini o’rganish bo’yicha ilmiy markaz tashkil etish ham rejalashtirilgan. Olimlar ilmiy faoliyat uchun barcha sharoitlarni ta’minlovchi materiallar va arxivlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo’ladi.

Muzeyni tashkil etish tashabbuskorlaridan biri — Buxoro jadidchilik maktabining vakillaridan biri Usmonxo’ja Po’latxo’jayevning o’g’li Timurxo’ja bo’lajak muzey fondiga qadimiy qimmatli qo’lyozmalarni o’z ichiga olgan boy kutubxonasini hamda zamonaviy adabiyotlarning keng to’plamini sovg’a qilishi mo’ljallangan.[7]

Shunday qilib, Buxoro jadidlari yoki umuman jadidlar ijtimoiy – siyosiy faoliyatining asosida ta’lim, yoshlar masalalari turgan bir sharoitda hozirgi davr yoshlari uchun ularning qarashlari dasturi amal bo’lib xizmat qilmog’i darkor. Bu esa, o’z navbatida, jadidlar merosini o’rganish va jamiyat hayotining turli jabhalarida tadbiiq qilish kabi muhim masalalarni o’rtaga tashlaydi. Buni o’rganish esa har birimizning muhim vazifamiz bo’lmog’i darkor.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. <https://president.uz/uz/lists/view/6007> Sh.M.Mirziyoyev. Jadidlar merosini o’rganishga bag’ishlangan Xalqaro konferensiya ishtirokchilariga. 06.03.2023
2. Фитрат “Оила”. Т., «Маънавият», 1998. 65-б
3. Тўйлар, оилавий тантаналар, маърака ва маросимлар ўтказилишини тартибга солиш тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси Кенгашининг ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг қўшма қарори, 14.09.2019 йилдаги 2736-III-сон
4. Rizayev.N. Abdurauf Fitratning “Hind sayyohi qissasi” va undagi ijtimoiy – siyosiy qarashlar tahlili. QarDU xabarlar.1(1) /2024.
5. “Туҳафи аҳли Бухоро” Мирзо Сирожиддин. Душанбе. “Адиб”1992. Б-70
6. [oyina.uz/uz/article/1032](http://oyina.uz/uz/article/1032) Buxoro jadidlari homiysi va yetakchisi Mirzo Sirojiddin- Dilnoza Jamolova.15.08.202215.08.2022 15.08.2022
7. [gazeta.uz/oz/2023/07/19/jadidism/](http://gazeta.uz/oz/2023/07/19/jadidism/) Buxoroda jadidchilikka bag’ishlangan ilk muzey ochiladi/ .19 iyul 2023